



**ILM-FANNI MOLIYALASHTIRISH VA INNOVATSIYALARNI QO‘LLAB-  
QUVVATLASH JAMG‘ARMASI IJRO ETUVCHI DIREKTORI  
BUYRUG‘I**

2024 - yil «22» yanvar № 06-P

Toshkent sh.

**Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash  
jamg‘armasida xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda  
imkoniyatlarni ta‘minlash bo‘yicha maslahat kengashi  
faoliyatini tashkil etish to‘g‘risida**

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘RQ-562-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrdagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida” SQ-682-IV-sonli Qarori, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 16-yanvardagi 2/15-3-sonli topshiriq xati ijrosini ta‘minlash maqsadida,

**BUYURAMAN:**

1. O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 2-sentabrdagi “Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlar kafolatlari to‘g‘risida” O‘RQ-562-son Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Senatining 2022-yil 28-dekabrdagi “2030-yilga qadar O‘zbekiston Respublikasida gender tenglikka erishish strategiyasining 2021-2022-yildagi ijrosi hamda uni amalga oshirish bo‘yicha 2023-yilga mo‘ljallangan chora-tadbirlarni tasdiqlash haqida” SQ-682-IV-sonli Qarori, Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 16-yanvardagi 2/15-3-sonli topshiriq xati ma‘lumot va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Quyidagilar:

Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi (keyingi o‘rinlarda-Jamg‘arma)da jamoatchilik asosida Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta‘minlash masalalari bo‘yicha maslahat kengashi (keyingi o‘rinlarda-Maslahat kengashi) tarkibi 1-ilovaga muvofiq;

Jamg'armada Maslahat kengashi faoliyatini tashkil etish bo'yicha nizom 2-ilovaga muvofiq tasdiqlansin.

3. Axborot xavfsizligi va AKT bo'yicha yetakchi mutaxassis (M.Tursunqulov) 1 kun muddatda jamg'armaning rasmiy veb-saytida alohida "Gender tenglik" sahifasini yaratsin.

4. Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng huquq hamda imkoniyatlarni ta'imnlash masalalari bo'yicha Kadrlar bo'yicha inspektor D.Kamalova mas'ul etib belgilansin.

5. Kadrlar bo'yicha inspektor (D.Kamalova)ga:

Maslahat kengashining yillik ish rejasini tasdiqlatish hamda uning ijrosini o'z vaqtida va sifatli bajarilishini;

Maslahat kengashi yig'ilishlarini tashkil etish va yig'ilish bayonlarini rasmiylashtirilishini;

rasmiy veb-saytda ochilgan "Gender tenglik" sahifasiga ma'lumotlarni kiritish va muntazam yangilab borilishini ta'minlasin, hamda ushbu buyruq bilan barcha xodimlarni tanishtirsin.

6. Mazkur buyruqning ijrosi ustidan nazoratni o'z zimmamda qoldiraman.

**Ijro etuvchi direktor v.v.b.**

**J.Tavakalov**



Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni  
qo'llab-quvvatlash jamg'armasi ijro etuvchi  
direktori v.v.b ning  
2024-yil "22" 01 dagi  
06 P-son buyrug'iga  
1-ilova

**Ilm-fanni moliyalashtirish va innovatsiyalarni qo'llab-quvvatlash  
jamg'armasida jamoatchilik asosida Xotin-qizlar va erkaklar uchun teng  
huquq hamda imkoniyatlarni ta'imlash masalalari bo'yicha tuzilgan  
maslahat kengashi  
TARKIBI**

<b>T/r</b>	<b>F.I.Sh</b>	<b>Lavozimi</b>
1.	Djanizakov Sherali Gafurovich	Ijro etuvchi direktor o'rinbosari, Maslahat kengashi raisi
2.	Tagaymuratova Marxabo Maxmudovna	Kasaba uyushmasi qo'mitasi raisi, Maslahat kengashi raisi o'rinbosari
3.	Chaqqonov Otabek Sherali o'g'li	Bosh yuriskonsult-a'zo
4.	Mardonova Aziza Abdurazzoq qizi	"Uzbek-Bazar.uz" loyihasi rahbari- a'zo
5.	Kamalova Dilorom Jurabekovna	Kadrlar bo'yicha inspektor- Maslahat kengashi kotibi